

MUQANNA OQ KIYIMLILAR QO'ZG'OLONING TARIXIY AHAMIYATI

Toshpo`latov Azamat Tolmos o'g'li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tarix fakulteti sirtqi
tarix o`qitish metodikasi yo`nalishi 4 bosqich talabasi 402 guruh

Anotatsiya

Maqolada Muqanna atrofidagi tarixiy tafsilotlar va tasavvufning muvozanatli aralashmasi keltirilgan. Uning hayoti, Oq kiyimlilar harakatining shakllanishi batafsil tavsiflangan. Maqola Muqannani o'z davrining ijtimoiy-siyosiy kontekstiga samarali joylab, Abbosiylar xalifaligidan norozilik va muqobil ijtimoiy tuzumga intilishni yoritadi.

Kalit so'zlar: Muqanna , qozg`olon, Movarounnahr, Oq kiyimlilar, Kesh, Abbosiylar, Sug'd, ,xalifalik.

Muqqanna (taxminan 719 Marv yaqinidagi Koza qishlog'i —783 Shahrisabz) — Movarounnahrda Arab xalifaligi hukmronligiga qarshi ko'tarilgan ozodlik harakatining boshlig'i (8-asrning 70—80-yillari). Bir ko'zi ko'r, boshi kal va basharasi xunuk bo'lganligidan boshi va yuziga ko'k parda tutib yurgan. Shuning uchun ham "Muqanna", ya'ni "Niqobdor" laqabi bilan mashhur bo'lgan¹.

O'sha davrni ziyolilari yozishi bo'yicha tug'ilib o'sgan vatani Sug'da bo'lib, ammo hozirgi davr tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda aslida Sug'd davlatiga chegaradosh bo'lgan Balx shaxridan ekanligiga bir ovozdan kelishilgan (hozirda shimoliy Afg'oniston). Asl ismi Hoshim ibn Hakim bo'lib, Narshaxiyning yozishicha, u ko'p o'qigan, g'oyat ziyrak bo'lib, kimyogarlik, sehr va tilsim ilmlarini o'rgangan. Arab, fors tillarini yaxshi bilgan. Ya'qubiyning tasvirlashicha, Muqannani Hoshim ul-a'var, ya'ni bir ko'zli Hoshim deb ham ataganlar. Muqanna yoshlik chog'ida kudungarlik (matolarga ohor beruvchi) kasbi bilan shug'ullangan. Xuroson noiblaridan AbuMuslim davrida sarhanglik (kichik lashkarboshi) va Abduljabbor Azdiy davrida (757—759) esa vazirlik darajasiga ko'tarilgan.² 759 yilda Xuroson amiri Abduljabborning xalifaga qarshi isyonida qatnashgani uchun zindonga tashlangan. Arablar Movarounnahr va Xuroson hududlarini bosib olgan davrlardan boshlab ularga qarshi xalq harakatlari doimiy

¹ <https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Miqanna&variant=uz-latn> 15.02.2024

² Crone, Patricia. "MOQANNA". Encyclopædia Iranica. Archived from the original on 2011-11-17.



ko, tarilib turgan, bunday qo'zgo'lonlarning sodir bo'lishiga asosiy sabablar yetarli edi. Birinchi navbatda mahalliy aholining o'z erkinligi qo'lga kiritish bo'lsa, ikkinchi navbatda arablarning o'lkada olib borgan siyosatiga qarshi norozilikning kuchayishi asosiy sabab bo'lgan. Ya'ni arablarning mahalliy aholiga bo'lgan zulmining oshib borishi, musulmon bo'lmagan odamlarga nisbatan shavqatsiz munosabatda bo'lishi, soliqlarni o'z vaqtida to'lamagan dehqon va hunarmandlarning badaniga tamg'a bosilishgacha borishi kabi sabablarni keltirishimiz mumkin.³

Muqanna (Hoshim ibn hakim) rahbarligida "oq kiyimlilar" qozg'oloni boshlanadi. Qozg'olonda dehqonlar, qishloq hunarmandlari va mahalliy zodagonlarning 1 qismi qatnashgan. Muqanna ajnabiylar hukmronligi va zulmiga qarshi qo'z g'alishga da'vat qilib, Movarounnahrqa yo'l oladi va o'z yaqinlari bilan Naxshab va Kesh shahriga yetib boradi. Kesh yaqinida tog' tepasiga bino qilingan Som qal'asini o'z qarorgohiga aylantiradi. Tez orada butun Qashqadaryo vohasi "Oq kiyimlilar" qo'lga o'tadi. Natijada "Oq kiyimlilar" harakati kengayib, katta xalq qo'zg'oloniga aylanadi. U ayniqsa Sug'dda avj olib, Eloq (Ohangaron) vodiysi va Shoshga ham o'zining ta'sirini o'tkazadi. Qo'zg'olonda turli tabaqalar qatnashadi. "Oq kiyimlilar" qo'zg'oloniga zarba berish uchun xalifa Mansur 775-yilda katta harbiy kuchni Movarounnahrqa safarbar qiladi. Dastlabki to'qnashuvlarda arab qo'shinlari katta talafotlar berib, Samarqandga chekinadilar. Biroq to'rt oy davom etgan kurashdan so'ng qo'zg'olonchilar mag'lubiyatga uchraydi.

Narshax va Samarqandda "Oq kiyimlilar" yengilgach, mahalliy mulkdor tabaqa vakillari arablarga yordam bera boshlaydilar. Kurashning oxirgi bosqichi Kesh vodiysida bo'lib o'tadi. 783-yilda Muqannaning Som qal'asidagi qarorgohi qamalga olinadi. Uzoq davom etgan qamaldan so'ng kurashdan tinkasi qurigan qo'zg'olonchilar taslim bo'ladilar. Istilochilarga taslim bo'lishni istamagan Muqanna o'zini yonib turgan tandirga tashlab halok bo'ladi. "Oq kiyimlilar" uyushqoqlik bilan harakat qila olmaganligi qo'zg'olon yengilishining asosiy sababi bo'ldi. Ikkinchidan, xalq harakatining ommalashib ketishidan cho'chigan mahalliy mulkdorlar birin-ketin arablar tomoniga o'tib ketganlar. Uchinchidan, qo'zg'olonning uzoq davom etganligi mehnat kashlarni holdan toydirgan.

³ SO'NGGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI 6-JILD 5-SON RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI 13.05.2023. OQ KIYIMLILAR QO'ZG'OLONI, MUQANNA SHAXSIYATI VA O'LIMINING QISQACHA TAHLILI. Obodov Sherzod Zayniddin o'g'li .



Qo'zg'olon bostirilgan bo'lsa-da, istilochilarga qarshi mahalliy xalq harakati uzil-kesil to'xtab qolmadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Muqanna hayoti O'rta Osiyo tarixida jozibali sahifa bo'lib turibdi. Uning notanish kudungardan (matolarga ohor beruvchi "Oq kiyimlilar" qo'zg'oloni rahbarigacha bo'lgan sayohati 8-9-asrlardagi notinch ijtimoiy-siyosiy manzarani aks ettiradi.. Muqannaning xarizmatik rahbariyatiga ta'sir qilgan "Oq kiyimlilar" qo'zg'oloni Abbosiylar xalifaligining adolatsizliklariga qarshi qarshilik ko'rsatish ramzi sifatida maydonga chiqdi. Muqanna tog'risida bir qator asarlar yozilgan xususan Hamid Olimjon Muqanna jasoratiga bag'ishlangan "Muqanna" (1943) dramasi, Sadridin Ayniy "Muqanna isyoni" (1944) tarixiy-adabiy ocherkini yozgan.⁴ Hattoki 1787 yili Napoleon Bonapart Muqanna timsoliga bag'ishlangan "Le Masque prophète" 2 betli kichkina hikoya yozgan.⁵ Mavorounnahrda mustaqil davlatning barpo etilishi va uning tarafdorlari bo'lmish Oq kiyimlilarning o'ziga xos liboslari Muqanna qarashlarining chuqur ta'sirini ko'rsatadi. Abbosiylar qo'shinlari bilan yakuniy to'qnashuv, xususan, Samarqandning dramatik qamal qilinishi Muqanna merosida burilish nuqtasi bo'ldi. Qo'lga olinishdan ko'ra olovda yonishni ma'qul ko'rgan Muqannaning oxiri hayoti kabi jumboqli va o'zgacha bo'lgan. Muqanna hayoti va "Oq kiyimlilar" qo'zg'oloni tarix yo'laklarida aks-sado berishda davom etib, utopik jamiyatga intilish va zulmkor boshqaruvga qarshi qarshilikni ifodalaydi. Uning tasavvufining soyalari uzoq davom etadi va tarixchilar va ishqibozlarni ta'siri vaqt chegarasidan oshib ketadigan figuraning nozik tomonlari haqida o'ylashga majbur qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. .Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova – O'zbekiston tarixi T:Toshkent 2006
2. R.Xoliqov, K.G'aniyev, M.Nasrullayev – O'zbekiston tarixi T:Samarqand 2019
3. SO'NGGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI 6-JILD 5-SON RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI 13.05.2023. OQ KIYIMLILAR QO'ZG'OLONI, MUQANNA SHAXSIYATI VA O'LIMINING QISQACHA TAHLILI. Obodov Sherzod Zayniddin o'g'li
4. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

⁴ O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

⁵ <https://www.bmlisieux.com/archives/bonapart.html> 15.02.2024